



Comparative analysis of the alla genre in english and uzbek folklore

Otabek FAYZULLOYEV¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

Lullaby,
folklore,
rhythm,
rhyme,
culture,
ritual,
language,
poetry,
children,
melody.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the lullaby genre in English and Uzbek children's folklore. The study examines the poetic structure, semantic features, and ceremonial significance of lullabies. English lullabies are characterized by simple rhyming patterns and smooth melodies, whereas Uzbek lullabies often include repetitive elements and blessings. The research demonstrates that lullabies serve to soothe children and strengthen the bond between mother and child.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp138-145>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek folklorida alla janrining qiyosiy tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

folklor,
ritm,
qofiya,
madaniyat,
marosim,
til,
she'riyat,
bolalar,
melodiya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek bolalar folklorida alla janri qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida allalarning poetik tuzilishi, semantik xususiyatlari va marosimiy ahamiyati o'rganilgan. Ingliz allalari sodda qofiyalanish va ravon ohangga asoslangan bo'lsa, o'zbek allalarida takroriy unsurlar va ezgu tilaklar ko'p uchraydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, allalar bolani tinchlantirish va ona-bola munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ PhD, Professor of Bukhara State University. E-mail: Fayzulloyevotabek77@gmail.com

Сравнительный анализ жанра алла в английском и узбекском фольклоре

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фольклор,
ритм,
рифма,
культура,
ритуал,
язык,
поэзия,
дети,
мелодия.

В данной статье проводится сравнительный анализ жанра колыбельных песен в английском и узбекском детском фольклоре. В ходе исследования изучены поэтическая структура, семантические особенности и ритуальное значение колыбельных. Английские колыбельные характеризуются простой рифмовкой и плавной мелодией, тогда как в узбекских колыбельных часто встречаются повторяющиеся элементы и благопожелания. Исследование показывает, что колыбельные способствуют успокоению ребенка и укреплению связи между матерью и ребенком.

KIRISH

Folklor – xalqning madaniy merosini o'zida aks ettiruvchi og'zaki ijod shakli bo'lib, unda inson hayoti bilan bog'liq marosimlar, qadriyatlar va dunyoqarash aks etadi. Bolalar folklori esa xalq og'zaki ijodining alohida tarmog'ini tashkil etib, yosh avlodning tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar folklori ichida alohida e'tiborga loyiq janrlardan biri alla (lullaby) bo'lib, u chaqaloqlarni tinchlantirish va uxlashlariga yordam berish uchun aytiladigan qo'shiqlardan iboratdir.

Allalar nafaqat bola ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita, balki madaniy, etnografik va poetik jihatdan ham qimmatli hisoblanadi. Ular ona va bola o'rtasidagi hissiy bog'lanishni mustahkamlash bilan birga, milliy an'analarni avlodlardan avlodga yetkazish vositasi hamdir. Turli xalqlar folklorida allalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi – bolaning uyquga ketishini ta'minlash va unga xavfsizlik hissini uyg'otish – bir xil bo'lib qoladi.

Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek bolalar folklorida alla janri qiyosiy tahlil qilinadi. Ingliz allalarining poetik xususiyatlari va o'zbek allalarining milliy o'ziga xosligi o'rganilib, ularning musiqiy, semantik va marosimiy ahamiyati tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot folklorshunoslik, qiyosiy tahlil va lingvistik tadqiqot usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Qiyosiy-tarixiy metod – ingliz va o'zbek allalarining kelib chiqishiga oid ma'lumotlar o'rganilib, ularning tarixiy shakllanishi tahlil qilindi. Strukturaviy tahlil – allalarning she'riy tuzilishi, qofiyalanishi, ritm va ohang xususiyatlari o'rganildi. Lingvistik tahlil – ingliz va o'zbek allalarida uchraydigan asosiy leksik birliklar, undovlar, epitetlar va obrazli ifodalar tahlil qilindi. Marosimiy tahlil – allalarning madaniy kontekstdagi o'rni, ularning etnografik va semantik jihatlari o'rganildi. Tahliliy taqqoslash – ingliz va o'zbek allalarining mazmuni, ularning obrazlari va poetik tuzilishi qiyosiy jihatdan solishtirildi.

Tadqiqot materiallari sifatida ingliz folkloridagi «Rock-a-Bye Baby», «Bye, Baby Bunting», «Hush, Little Baby» allalari hamda o'zbek xalq allalarining yozma va og'zaki namunalardan foydalanildi.

NATIJALAR

Lullaby (alla) – ingliz bolalar folklorining alohida she'riy bir janri. Bolalarning uxlab qolishi uchun kuylanadigan, ularni tinchlantiruvchi bunday qo'shiqlar ko'proq yumshoq ohanglari bilan mashhur. Unga misol sifatida "Rock-a-Bye Baby" va "Hush, Little Baby" qo'shiqlarini keltirish mumkin. Bu qo'shiqlar yosh bolalar uchun qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini yaratadi, tinch uxlashlariga yordam beradi.

Allalar monoton ohangda ijro qilinadi. Ular, asosan, to'rtliklardan tashkil topgan bo'ladi. Ingliz allalarida "baby", o'zbek allalarida "bolam" so'zi undalma bo'lib keladi. O'zbek allalarida alla so'zi har satrda yoki satr osha, goho esa uzvli shaklda (alla-yo alla, alla-o, huy-yo tarzida) takrorlanib keladi.

O'zbek folklorida otalar (erkaklar) allasi bo'lgani kabi ingliz folklorida ham ota tomonidan kuylangan allalar borligi aniqlandi. O'zbek folklorida bunday allalar "Huy-ya"lar deb yuritiladi. [1]

Hush-a-bye, baby, lie still with thy daddy,
Thy mammy is gone to the mill,
To get some meal to bake a cake,
So pray, my dear baby, lie still.

Unda bolaga murojaat qilinib, onasi keks pishirish, ovqat olib kelish uchun tegirmonga ketgani sababli dadasi bilan jim yotishga undalmoqda.

Beshik qo'shig'i deb aytish mumkin bo'lgan qo'shiqlarda "beshik" so'zining ishtiroki ularning tabatini belgilash uchun muhim belgi sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan:

Rock-a-bye-Baby Rock-a-bye, Baby, in the tree top, When the wind blows the cradle will rock; When the bough breaks the cradle will fall, Down tumbles cradle and Baby and all.	Rock-a-be-Baby Rok-a-bay, bolam, daraxt tepasida, Shamol essa beshik tebratadi; Shox uzilganda beshik tushadi, Down tumbles beshik va Baby va barcha.
--	---

Ingliz bolalar folklorida ham o'zbek folklorida bo'lgani kabi alla, erkalash, ovutish qo'shiqlari juda mashhur bo'lib, ularning ko'plab shakllari mavjud. Ulardan biri "Bye, baby Bunting" alla qo'shig'idir. U dastlab 1731-yil Angliyada yozib olingan. Bu alla qo'shig'ining qisqa va uzunroq yozilgan shakllari bor. Unda "bunting" so'zi "to'la, do'mboq" ma'nosida erkalash uchun ishlatilgan:

Asliyatda	Tarjimasi
Bye, baby bunting, Dady's gone a hunting. Gone to get a rabbit skin To wrap the baby Bunting in.	Xayr, chaqaloq Bunting, Dadang ovga ketgan. Quyvon terisini olishga ketti, Chaqaloq Buntingni o'rash uchun.

Ushbu allaning keyingi satrlari etnografik mohiyatga ega bo'lib, u orqali o'tmishda chaqaloqlarni magik himoyalash maqsadida turli hayvonlarning terisiga o'rab katta

qilishgani anglashilib turibdi.

Yoki yana:

Asliyatda	Tarjimasi
Bye, baby bunting, Father's gone a-hunting. Mother's gone a -milking, Sister's gone a -silking. Brother's gone to buy a skin To wrap the baby Bunting in. (141)	Xayr, chaqaloq Bunting, Dadang ovga ketgan. Onang sut sog'ishga ketgan, Opang ipakka ketgan, Akang teri sotib olishga ketti, Chaqaloq Buntingni o'rash uchun.

Ushbu allada bola uxlasa, oila a'zolarining har biri o'ziga tegishli ishni qilishi, ya'ni ota ovga borib, yegulik olib kelishi, ona sut sog'ishga borishi, opa ipak yigirishga, aka esa teri sotib olishga ketishi uchun imkon paydo bo'lishi ta'kidlanmoqda.

O'zbek allalarida "bulbul" ornitonimi goh bola obraziga o'xshatilishi yoki istiora qilinishi kuzatiladi:

Qizil gulning xirmonisan, alla-yo, alla,

Jonginamning darmonisan, alla-yo, alla.

Bulbulginam, alla qilgin, alla-yo, alla.

Gul umrimning darmonisan, alla-yo, alla.[2]

Bulbul ornitonimi orqali bola obrazi ifodalanganda ko'pincha intensivlikning milliyligi inson ovozi o'ta yoqimli sayraydigan qush turi – bulbulning mayin va xush yoquvchi ovozda sayrashiga o'xshatish yo'li bilan ko'rsatiladi.

O'zbeklar orasida bola beshik yoshida vafot qilsa, uning uchun quruq beshikni tebratib turib "motam allasi" aytiladi.[3] Shu bois xalq orasida beshikni bolasiz, bo'sh holda tebratish yomon irim sifatida qabul qilinadi.

Yosh bolalar uchun aytiladigan olqishlar mazmunan kengligi bilan ajralib turishi va bolalarga aloqador turli marosimlarning verbal qismi sifatida namoyon bo'lishini O.Safarov batafsil tahlil qilgan. O'zbek folklorida ularning aksariyati she'riy ko'rinishdagi aytim-olqishlardan iborat. **Aytim-olqishlar** deb ataladigan bunday rasm-rusum qo'shiqlari,[4] asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi. Jumladan, chaqaloq besh va to'qqiz kunlik bo'lganda, ilk bor cho'miltirilganda, beshikka bog'lanayotganda yoki beshikdan ochib olayotganda, qarindoshlariga tanishtirilganda, ilk tishi yoriganda, birinchi marta mustaqil o'tirganida, oyoq bosganida, yangi kiyim kiygizilganda, ilk bor ovqatlantirilganda, qizaloq sochini ilk bor yuvib-taraganda, tirnog'i ilk bor olinganda, o'g'il bola sochiga birinchi marta qaychi urilganda, isiriq tutatilganda va boshqa shunga o'xshash vaziyatlarda chaqaloqqa uzoq umr, farovon rizq, baxtli kelajak tilash maqsadida ijro etiladi. Masalan, tishi chiqqanda: "Sariq tishlik bo'lsin, oq sochlik bo'lsin, umri uzun, rizqi butun bo'lsin" deya olqish aytilib, yaxshi niyat bildiriladi.[5]

Xullas, shunday rasm-rusumlardan har birining mazmuniga yarasha aytim-olqishlar mavjud.[6] Inson o'zining muayyan faoliyatining boshlanishida ham, yakun topishida ham olqish aytdi.

Erkalama – bolalarni suyish uchun aytiladigan xalq qo'shiqlaridan biri. Ularni kuylash inson kayfiyati bilan bog'liq. Bunda kayfiyatning ko'tarinkiligi muhim rol o'ynaydi.

O'zbek erkalamalari ko'pincha "O... shugina", "Shuginagina", "Ha, lo'tti-lo'tti", "Ha, do'rsa, do'rsa, do'rsa", "Ha, kishta-kishta, kishta" singari taqlidiy va so'qma so'zlar bilan boshlanadi. Ular 2-3 yashar bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Ammo 7 yoki 11-13 yoshga to'lgan bolalarga ham erkalash qo'shiqlari aytilishi mumkin.

Erkalash qo'shiqlari ingliz bolalar folklorida ham mavjud. Ulardan biri "Pat-a-Cake" erkalamasidir. Unda shunday deyiladi:

Pat-a-cake, pat-a-cake, baker's man,
Bake me a cake as fast as you can.
Roll it, and prick it, and mark it with a "B"
And put it in the oven for Baby and me!

Unda kuylovchi tomonidan novvoy odamga murojaat qilinib, chaqaloq va o'zi uchun iloji boricha tezroq pechda tort pishirish, uni teshib qo'yib, o'rtasini "B" harfi bilan belgilash so'ralmoqda.

Ingliz onalar folklorida mashhur erkalmalardan biri "Miltilla, kichkina yulduz" (twinkle, little star) deb boshlanadi:

Asliyatda	Tarjimasi
Twinkle, twinkle, little star, How I wonder what you are! Up above the world so high, Like a diamond in the sky.	Miltilla, miltilla, kichkina yulduz, Siz nima ekanligingizga hayronman! Dunyodan shunchalik baland, Osmondagi olmos kabi.
When the blazing sun is gone, When he nothing shines upon, Then you show your little light, Twinkle, twinkle, all the night.	Yorqin quyosh yo'qolganda, U hech narsa yoritmasa, Keyin kichkina nuringizni ko'rsatasiz, Tun bo'yi miltilla, miltilla.
Then the trav'ller in the dark, Thanks you for your tiny spark, He could not see which way to go, If you did not twinkle so.	Keyin zulmatda sayohatchi, Kichkina uchquningiz uchun rahmat, Qaysi tomonga borishni ko'ra olmadi,
In the dark blue sky you keep, And often thro' my curtains peep, For you never shut your eye, Till the sun is in the sky.	Agar shunday qimirlamagan bo'lsangiz.
Tis your bright and tiny spark, Lights the trav'ller in the dark: Tho' I know not what you are, Twinkle, twinkle, little star. (284)	To'q moviy osmonda siz saqlaysiz, Va ko'pincha pardalarimga qarab, Chunki siz hech qachon ko'zingizni yummysiz, Quyosh osmonda bo'lguncha.
	Bu sizning yorqin va mayda uchquningiz, Zulmatda sayohatchini yoritadi: Sen kimligingni bilmayman, Miltilla, miltilla, kichkina yulduz.

Ushbu qo'shiqni ingliz onalari bolani erkalash jarayonida kuylar ekan, unda bolani yulduzga mengzaydilar. Bolani yulduzga o'xshatish o'zbek folklorida ham kuzatiladi.

Masalan:

Osmondagi yulduzim,
Yoqamdagi qunduzim.
Tezroq ulg'ay, katta bo'l,
Mening oppoq, jon qizim.

Quyidagi qo'shiq ovutmachiq yo erkalama, yo alla qo'shig'i, yo qizaloqlar tilidan qo'g'irchoqni o'ynatish qo'shig'i sifatida kuylanishi mumkin:

Asliyatda	Tarjimasi[7]
Hush, baby, my doll. Hush, baby, my doll, I pray you don't cry. And I 'll give you some bread and some milk, by-and by, Or perhaps you like custard, or, maybe a tart, Then two either you are welcome, with all my heart. (61).	Tinchlan chaqaloq qo'g'irchog'im. Tinchlan, chaqalog'im, mening qo'g'irchog'im, Men senga non va sut beraman, Balki sen kremni yoki pirogni yoqtirarsan, Qaysi biri bo'lsa ham, marhamat, jonim bilan.

Bolalarni ovutish, tinchlantirish, onasi uy-ro'zg'or ishlarini bajarib olishi uchun ba'zan katta kishi (bobo yoki buvilar) yosh bolakayni tizzasiga o'tirg'izib, silkitib, yuqoriga otib o'ynatadilar. Bunda ularning qo'llari va oyoqlari yo'rgaklangan bo'lishi mumkin. Shu bosqichda eng mashhur o'zbek bolalar o'yinlaridan "Havzak-havzak"lardan ko'p foydalaniladi.[8] "Havzak-havzak" yoki "Bordi-bordi" barmoq o'yini hisoblanadi. Inson qo'lidagi o'nta barmoqning har biri xalq orasida o'ziga xos nomlar bilan yuritiladi. Ular bosh barmoq, ko'rsatkich barmoq, o'rtancha barmoq, nomsiz barmoq, jimjiloq (yoki sinchaloq, chimchiloq, chipaloq, kichkina barmoq) kabi nomlar bilan ataladi. Yana ularning har biri o'z vazifasiga egaligi ta'kidlanadi. Masalan, bosh barmoqni tikka holatda birovga ko'rsatish uning hatti-harakatini yuqori baholash ma'nosini anglatishi, bu barmoqni yuqori ko'tarish esa kishiga kuchlilik, yuksaklik tilashni ramziy ifoda etishi aytiladi. Ko'rsatgich barmoqni yuqori ko'tarish o'z-o'ziga ishonchni, ogohlantirishni, diqqatni jalb etishni bildirib kelsa, o'rta barmoqni yuqori ko'tarish qiyinchilikdan ogohlantirish yoki qiyinchiliklarni oson yengishga da'vat etish, darddan xoli bo'lishga yordam berishga ishontirish ma'nolarini bildirishi qayd qilinadi. Nomsiz barmoq boylikni, go'zallikni anglatib kelsa, chimchiloq, odatda, egasining qudratlilikka intilishini o'zida ifodalab keladi.[9] O'zbeklar orasida o'rta barmoqqa o'lik yuvuvchi g'assollar uzuk taqqan. [10] Shuning uchun kattalar yoshlarning o'rta barmog'iga uzuk taqqani ko'rishsa, norozi bo'lib urishib qo'yadilar. Odatda, nikoh uzugi nomsiz uzukka taqiladi.

MUHOKAMA

Allalar milliy madaniyat va etnografik tafakkurning yorqin ifodasi bo'lib, ularning poetik va marosimiy jihatlari turli xalqlarda o'ziga xoslik kasb etadi. Ingliz va o'zbek allalarini qiyoslash orqali quyidagi asosiy farq va o'xshashliklarni aniqlash mumkin:

Poetik tuzilish va ohang. Ingliz allalari odatda oddiy qofiyalanish tizimiga asoslanadi va ularning satrlari qisqaroq bo'ladi. Masalan, «Rock-a-Bye Baby» allasida:

*Rock-a-bye baby, in the tree top,
When the wind blows, the cradle will rock.*

Bu she'riy tuzilma bolalarning yodlab olishiga oson bo'lishi uchun sodda va monoton tarzda tuzilgan. Ingliz allalarida qofiya va ritmning bir xilligi bolani tezroq uxlatishga yordam beradi.

O'zbek allalarida esa takroriy so'z va tovush birliklari ko'p ishlatiladi. Ular ritmik jihatdan ham murakkabroq bo'lishi mumkin:

*Bulbulginam, alla qilgin, alla-yo, alla.
Gul umrimning darmonisan, alla-yo, alla.*

Bu yerda «**alla**» so'zi tinchlantiruvchi fonetik birlik sifatida ishlatilgan bo'lib, u bir necha marta takrorlanadi.

Marosimiy va etnografik ahamiyat. Ingliz allalarida oilaviy hayot aks ettiriladi. Masalan, «Bye, Baby Bunting» allasida ota ovga ketganini va chaqaloqning o'ralishi uchun hayvon terisi olib kelishini tasvirlash orqali oila a'zolari o'rtasidagi vazifalar ifodalangan.

O'zbek allalarida esa bolaga ezgu tilaklar, baxtli kelajak tilash motivlari ko'p uchraydi. Shuningdek, ayrim allalar **marosimiy** jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbeklar orasida chaqaloq beshik yoshida vafot etsa, unga **motam allasi** aytiladi. Shu bois beshikni bolasiz tebratish **yomon irim** sifatida qabul qilinadi.

Erkalama va ovutish qo'shiqlari bilan bog'liqligi. O'zbek allalari ba'zan erkalama va ovutish qo'shiqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular bolaga shirin so'zlar bilan murojaat qilish, uni tinchlantirish va erkalash orqali kuylanadi. Masalan:

*Osmondagi yulduzim,
Yoqamdagi qunduzim.*

Ingliz bolalar folklorida ham bunday erkalash ohanglari mavjud bo'lib, eng mashhurlaridan biri «**Twinkle, Twinkle, Little Star**» hisoblanadi. Ushbu qo'shiqda bola yulduzga qiyoslanib, unga mehr-muhabbat bildirilib kuylanadi.

XULOSA

Ingliz va o'zbek allalari orasida ko'plab o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ularning poetik tuzilishi va semantik jihatlarida ayrim farqlar borligi kuzatildi. Har ikkala madaniyatda ham allalar chaqaloqning tinchlanishi va ona-bola o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. O'zbek allalari marosimiy jihatdan boy bo'lib, ularning tarkibida milliy qadriyatlar, ezgu tilaklar va mifologik motivlar ko'proq uchraydi. Ingliz allalari esa oddiy, ravon va qisqa satrlardan iborat bo'lib, bolalar tomonidan yodlab olinishi oson bo'lgan she'riy shakllarga ega. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, allalar milliy o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi barcha xalqlarda bir xil – bolani tinchlantirish va unga mehr-muhabbat bildirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusov G.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qitg'uvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26; Shoymardonov I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B.13-14.

2. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. – Т.: Ғ.Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.19.

3. Ўраева Д. Мотам аллаларининг жанрий белгилари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2005. – №1. – Б.51-59.
4. Сафаров О. Айтим-олқишлар // Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Фан, 1983. – Б.33-49; Сафаров О. Айтим-олқишлар // Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б.44-55.
5. Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим қўшиқлари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи – филология фанлари доктори М.Жўраев. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.
6. Ниязова М.Х. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2022. – 150 б.
7. Барча таржималар ўзимизники.
8. Сафаров О. Болалар фольклорида “Ҳавзак-ҳавзак”. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – №6. – Б. 32.
9. Qarang: Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Бухоро, 2022. – Б.155.
10. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.
11. Yunusov G'.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qitg'uvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26; Shoymardonov I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B.13-14.
12. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. – Т.: Ғ.Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.19.
13. Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим қўшиқлари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи – филология фанлари доктори М.Жўраев. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.
14. Ниязова М.Х. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2022. – 150 б.
15. Сафаров О. Болалар фольклорида “Ҳавзак-ҳавзак”. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – №6. – Б. 32.
16. Qarang: Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Бухоро, 2022. – Б.155.
17. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.
18. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. "Naturalistic Images In The Novel "Sister Carrie" By The American Writer Theodore Dreiser." Scientific reports of Bukhara State University 4.3 (2020): 179-183.